

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Bahronova Sabina Elmurod Qizi

DTPI Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Baxriddinova Madina Sadreddin Qizi

DTPI Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Habibullayeva Dilnoza Danaboy Qizi

DTPI Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda tarbiyachining vazifasi va bolalarga ta'lism-tarbiya berishning o'ziga xos jihatlari aks etgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lism, bola tarbiyasi, innovatsiya, pedagogik mahorat, bolalarning qobiliyatlari, jamoa.*

KIRISH

Hammamizga ma'lumki, ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim beribgina qolmasdan, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish turli innovatsiyalardan foydalanib, ularni ta'lism jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish muhimdir. Yangilanayotgan har tomonlama rivojlanayotgan mamlakatimiz farzandlariga yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda maktabgacha ta'limga o'qitish tizimining takomillashtirish, mashg'ulotlarni jahon andozalariga mos tarzda tashkil etish bolalarning faolligini va qobiliyatlarini rivojlantirish lozim. Ta'lism-maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlarini muntazam rejali ravishda rivojlanib borish, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'lism-tarbiya berishni eng oddiysidan murakkablik darajasida bilimlar sistemasi bilan qurollantirib, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Ta'limga muvaffaqiyatli o'qitish uchun muhim barcha shart sharoitlar yaratilmoqda. Ta'limga ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yo'l-bolalarni bilim, malaka, ko'nikmalarini kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallay borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati, jismoniy faoliyat va shu kabilar bilan belgilanadi. Abu Ali Ibn Sino - "Taklif qilgan tarbiya va ta'lism mazmunini aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashtirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va hunar o'rgatishni o'z ichiga oladi", - deya ta'kidlagan

Ikkinchi yo'l-maxsus tayyorgarligi bor mutaxassislarining maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, ko'nikma va malakalarini egallashini rejali ravishda xabardor bo'lib borishidir. Bunday ta'lism berish yo'li orqali yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy -madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan turli xil yutuqlar bilan tanishtirishdir. Farobiy "Ijtimoiy tarbiyani tartibga solish uni boshqarish masalalariga alohida e'tibor

qaratgan.U mehnat faoliyatini tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi "-degan xulosaga kelgan. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida tarbiyachi turli xil metodlardan, usullardan foydalanishi lozim. Ularga kuzatish, namoyish etish, ekskursiya, suhbat, taqqoslash va bolalarni rag'batlantirish va jazolash metodlari ham kiradi. Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega. Birgalikda faoliyat jarayonida bolalar bir-biriga faol ta'sir ko'rsatadi,o'z tashabbuskorlari,topog'onligini namoyon qila oladi. Ekskursiyalar orqali bola ongida tasavvur qilgan narsalar jonli ravishda muhrlandi. Bolalar rasm qirqib yopishtirish, qurilish yasash ishlarini birgalikda bajarib,jamoa bo'lib raqs-o'yinlarnini ijro etish, badiiy asarlarni o'qish ularni sahnalashtirish orqali mакtabdagи o'qishga qiziqishi ortadi, javobgarlik hissini,o'zini tuta olish,mehnat qilishga intilish, to'g'ri va vaqtida bajarishni o'rganishadi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat, ijtimoiy hayot va turli ekskursiyalar orqali tabiat bilan tanishtirish,vatanga muhabbatini uyg'otish hamda nutqni o'stirish, bolani aqlan, jismonan, ruhan maktab hayotiga tayyorlab beradi. Ertamiz egalariga munosib ta'lim-tarbiya berish bizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Rafiqova.D.K.Karimova.G.Y(2020). Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda qadriyatlarning ahamiyati.
- 2.Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. P.Yusupova.-T."O'qituvchi".1993
- 3.A.Munavvarov Pedagogika.-T"O'qituvchi".1996.